

4319087 . - SON
TELEKOMMUNIKATSIYA XIZMATLARI KO'RSATILISHI TO'G'RISIDA
ABONENT SHARTNOMASI

Yuridik shaxslar (shu jumladan, budjet tashkilotlari) uchun

Qarshi shahar

2022 yil 31.01.

"O'zbektelekom" aksiyadorlik kompaniyasi (keyingi o'rinlarda – Kompaniya) nomidan 2021 yil 30 dekabrda 2021-14/6031-son ishonchnoma asosida faoliyat yurituvchi Kompaniyaning Qashqadaryo filiali direktori J.Bozorov (keyingi o'rinlarda – Operator) bir tomondan va Uyushma bo'lyi naps nomidan Ustav (Nizom, ro'yxatga olinganlik to'g'risidagi guvohnoma, ishonchnoma) asosida faoliyat yurituvchi Uyushma bo'lyi naps (keyingi o'rinlarda – Abonent) ikkinchi tomondan (keyingi o'rinlarda birgalikda - Tomonlar) telekommunikatsiya xizmatlari ko'rsatilishi bo'yicha quyidagilar haqida Abonent shartnomasini (keyingi o'rinlarda – Shartnoma) tuzdilar:

1. Shartnoma predmeti

1.1. Abonent ushbu Shartnomani imzolab:

- Operatorning WWW.UZTELECOM.UZ rasmiy veb-saytida e'lon qilingan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367-369-moddalariga muvofiq "O'zbektelekom" aksiyadorlik kompaniyasining telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish to'g'risida abonent shartnomasini tuzishga rasmiy ommaviy taklifi bo'lgan Ommaviy ofertasi (keyingi o'rinlarda – Oferta) shartlari bilan to'liq tanishib chiqqanligini tasdiqlab, ushbu Oferta shartlari asosida Operator bilan telekommunikatsiya xizmatlari ko'rsatilishi to'g'risida shartnoma tuzadi;

- Operator tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar uchun Abonent dastlabki avans to'lovini amalga oshirishi va to'lov faktini tasdiqlovchi tegishli moliyaviy hujjatni olishi Operator Ofertasining shartlarini so'zsiz qabul qilishi (akseptini) hisoblanadi.

1.2. Tomonlar Ofertaning 2-moddasida ko'rsatilgan maqsadlarda ushbu Shartnomani imzolaganidan so'ng, Operator Abonentga identifikatsiya raqamini beradi. Identifikatsiya raqami berilganidan so'ng, Abonent, Operator tomonidan taqdim etiladigan xizmatlar ro'yxati doirasida o'z tanlovidan kelib chiqib, dastlabki avans to'lovini amalga oshirishi mumkin.

1.3. Xizmat ko'rsatish shartlari Ofertaning 3-moddasida belgilangan asoslarda va Abonent tomonidan tanlangan xizmat turi hamda ushbu xizmatni taqdim etish uchun texnik imkoniyatlar mavjudligidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

2. Tomonlarning huquq va majburiyatlari

2.1. Operator ushbu Shartnomani imzolagan vaqtdan boshlab, Ofertaning 4-moddasida belgilangan huquq va majburiyatlarga ega bo'ladi.

2.2. Abonent ushbu Shartnomani imzolagan vaqtdan boshlab, Ofertaning 5-moddasida belgilangan huquq va majburiyatlarga ega bo'ladi.

2.3. Tomonlar ushbu Shartnoma amal qilish davrida, o'z huquq va majburiyatlariga qat'iy rioya etilishini ta'minlash yuzasidan zarur choralarni amalga oshiradilar.

3. Hisob-kitob va to'lovlar tartibi

3.1. Mazkur Shartnoma bo'yicha Ofertaning 6-moddasiga muvofiq, xizmatlar (mobil aloqa xizmati bundan mustasno) ko'rsatilganidan keyin to'lovni amalga oshirish (Postpaid) tizimi shartlari tatbiq etiladi.

3.2. Tariflar Abonent bilan Shartnoma tuzilganda va Operator xizmatlaridan foydalanish jarayonida Abonent bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun majburiydir. Xizmatlar uchun barcha tariflar milliy valyutada ko'rsatiladi va ushbu Shartnoma tuzilgan vaqtda belgilangan barcha soliqlar va yig'implarni o'z ichiga oladi.

3.3. Xizmatlardan foydalanish uchun Abonent to'lovi birinchi oyda ushbu Shartnoma tuzilgan sanadan boshlab 3 (uch) bank kuni mobaynida amalga oshiriladi.

3.3.1. Ilk bor ulanishda Abonent to'lovi **100 (bir yuz) foiz** miqdorida oldindan to'lanadi. dastlabki avans to'lovi oldindan to'lov bo'yicha talabnoma (hisob) asosida hamda ushbu Shartnomaning tegishli ilovasida (Abonent tomonidan tanlangan xizmat turi bo'yicha) ko'rsatilgan miqdorga muvofiq har bir tanlangan xizmat turi uchun alohida amalga oshirilishi mumkin.

3.4. Budjet tashkiloti bo'lgan Abonent uchun Shartnomaning umumiy summasi ushbu Shartnomaning tegishli ilovasiga (Abonent tomonidan tanlangan xizmat turi bo'yicha) muvofiq ko'rsatilgan xizmatlar hajmi bilan belgilanadi.

Shartnomaning umumiy summasi (QQSni hisobga olgan holda) 1000000 (bir million o'zbek so'mi) so'mni tashkil etadi. Ushbu summa _____ (_____) so'm miqdoridagi Abonent to'lovini hamda _____ (_____) miqdoridagi bir martalik to'lovni o'z ichiga oladi.

3.4.1. Mazkur Shartnomaning umumiy summasi oshib ketgan taqdirda, ortiqcha summa Tomonlar o'rtasida imzolangan qo'shimcha kelishuv taqdim etilgan hisob-faktura asosida to'lanadi.

3.5. Abonent ushbu Shartnomaga asosan yoki berilgan hisob-faktura asosida har oyda Operator tomonidan hisob-faktura berilgan kundan boshlab **3 (uch) bank kuni** ichida ushbu Shartnomada ko'rsatilgan Operatorning Shaxsiy (elektron) hisob raqamiga pul mablag'larini o'tkazish yo'li bilan Operator tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar haqini to'laydi.

3.6. Agar Abonentning Shaxsiy (elektron) hisob raqamida xizmatlar ko'rsatish uchun yetarli mablag' bo'lmasa yoki mazkur Shartnomaning 3.5-bandida ko'rsatilgan muddatda har oylik hisob-faktura bo'yicha to'lov amalga oshirilmagan bo'lsa, Operator ushbu Shartnoma bo'yicha xizmatlar ko'rsatilishini to'xtatishi mumkin.

3.7. Operator tomonidan ulangan va taqdim etilgan xizmatlardan Abonent tomonidan foydalanilmasligi, Abonentga ushbu xizmatlar uchun to'lovlarni amalga oshirmasligiga asos bo'la olmaydi.

3.7.1. Agar Abonent Operator xizmatlaridan foydalanishni vaqtincha to'xtatishni, shuningdek, hisobot davri (kalendar oyi) uchun istalmagan to'lovlarning oldini olishni istasa, Abonent hisobot oyining 1-kunidan oldin xizmatlarni ixtiyoriy ravishda blokirovka qilish uchun ariza topshirishi kerak. Blokirovka qilish tartibi Oferta qoidalarini bilan tartibga solinadi.

3.8. Operator dan bonuslar ko'rinishida reklama aksiyalari doirasida Abonentga taqdim etilgan barcha mablag'lar faqat Operator xizmatlari uchun to'lanishi mumkin va Shartnoma bekor qilinganda Abonentga pul shaklida to'lanmaydi yoki qaytarilmaydi.

3.9. Operator tomonidan taqdim etilgan xizmatlar, Shartnomaga muvofiq har bir xizmat turi uchun alohida rasmiylashtiriladigan hisob-faktura bilan yopiladi. Har bir hisob-fakturada taqdim etilgan xizmatlarning to'liq kalendar oyi uchun umumiy miqdori ko'rsatiladi.

3.9.1. Agar Abonent **10 (o'n) ish kuni** mobaynida Operator tomonidan taqdim etilgan hisob-faktura bo'yicha o'z e'tirozlarini yozma yoki elektron shaklda taqdim etmasa, ushbu xizmat turi bo'yicha hisob-faktura qabul qilingan va xizmatlar tegishli tarzda ko'rsatilgan deb hisoblanadi. Abonentning e'tirozlari asoslantirilgan taqdirda, Operator keyingi kalendar oyida taqdim etiladigan xizmatlar uchun to'lov talabnomasida (hisobida, hisob-fakturada) tegishli tuzatishlarni amalga oshiradi.